private void timer2_Tick(object sender, EventArgs e)
{
    try
    {
        if (myclient.data.DataAvailable) //агар "поток" даянги маълумот мавжуд бўлса
        {
            Byte[] bytes = new Byte[myclient.tcpcli.ReceiveBufferSize];
            //янги олинган маълумотлар ўлчамидagi байтлар массивини эълон қиламиз
            myclient.data.Read(bytes, 0, bytes.Length); //мижоз
            "поток" идан маълумотларни оламиз
        }
    }
}
```

```

string returndata = System.Text.Encoding.Unicode.GetString(bytes);
//байтлармассивидагимаълумотни,
юникодкодировкасидагитексткўринишигаўгирамиз

MessageBox.Show(returndata); //текстнифойдаланувчигакурсатамиз

myclient.data.Flush(); //мижоз "поток"инитозалаймиз
}

else return; //агар "поток"да янги маълумот мавжуд бўлмаса таймердан чиқамиз

}

catch (Exception ex) //хатолик юз берса уни илиб оламиз
{
//    MessageBox.Show(ex.Message); //хатолик ҳақидаги маълумотни кўрсатамиз
}

```

Сокетни ёпиш қуйидагича амалга оширилади:

```
servak.Stop();
```

5-Маъруза. Асосий тармоқ протоколлари ва уларнинг вазифалари.

Режа:

1. Асосий тармоқ протоколлари
2. Уларнинг вазифалари.

Маълумки, ҳар қандай лойиҳалаш ҳали бўлмаган ҳақиқатни жуда соддалаштирилган моделлашни намоён қилади. Шунинг учун, аслида келажакда пайдо бўлиши мумкин бўладиган барча омилларни олдиндан кўра билиш, Барча талабларни ҳисобга олиш амалда мумкин эмас ва биронта нарсани лойиҳалаш бўйича барча энг батафсил ёзилган қўлланмалар унча катта қийматга эга эмас.

Лекин локал компьютер тармоқларни лойиҳалашга энг умумий масалаларни барибир ифодалаш мумкин, бундай лойиҳалашни баъзи фойдали принциплари таклиф қилиниши ва унумли ишлатилиши мумкин. Фақат уларна ҳвар қандай амалий ҳолатлар учун мумкинлигини ва барча бўлажак ҳолатлар учун етарли деб

қабул қилиш керак эмас.

Қандайдир ташкилот учун янги тармоқни ўрнатганда қуйидаги омилларни ҳисобга олиш мумкин бўлади:

- Керакли тармоқ ўлчамлари (яқин келажакка ва арогноз бўйича узок келажакка).
- Талаб қилинадиган таркиби, иерархия ва тармоқларни асосий қисмлари (корхонани бўлимлари бўйича, шунингдек хоналар, каватлар ва корхона бинолари бўйича).
- Асосий йўналишлари ва ахборотли оқимнинг интенсивлиги (яқин ва узок келажакда).
- Жихозларнинг техник тавсифлари (компютерлар, адаптерлар, кабеллар, репитерлар, концентраторлар, комутаторлар) ва уларнинг нархи.
- Хоналарда ва улар орасида кабел тизимларни жойлаштириш, шунингдек кабелни бутунлигини таъминот чоралари.
- Тармоқга хизмат қилшни таъминот ва унинг бузилмасдан ишлашини ва хавфсизлигини назорат қилиш.
- Тармоқнинг рухсат этилган ўлчамлари, тезлиги, эгилувчанлиги, кириш ҳуқуқларни чегаралаш, нархи, ахборот алмашинувини назорат қилиш имкониятлари ва ҳ.к. бўйича талаблар.
- Глобал тармоқларга ёки бошқа локал тармоқларга улашнинг зарурлиги.

Юқорида санаб ўтилган ҳали яна қўшилмаган омиллар маълум бўлса, тармоқсиз ҳам ишларни олиб бориш мумкиндир, чунки аппаратура Катта харажатларни ва дастурий таъминотни, ўрнатишни, тармоқни эксплуатация қилишни, хизмат қиладиган корхонага иш ҳақи тўлашни, тармоқни ишлаш даражасида ушлаб туришни ва таъмирлашни ва ҳ.к талаб қилади. Масалан, Агар бирнечта фойдаланувчилар бўлса, ва улар ўзларини компютерларида автономно ишласа ва гоҳида файиллар билан алмашиб турилса, яъни оддий дискета тармоқни алмашириши мумкин (бу ҳам арзон, ҳам ташвиши камроқ). Автономли компютерларга краганда, тармоқ кўп қўшимча муаммолар туғдиради: оддий механикадан (тармоқга уланган компютерларни бир жойдан иккинчисига олиб ўтиш мураккаброқ) то мураккаб ахборавийлигигача (бирга ишлатадиган ресурсларни назорат қилиши зарурлиги). Бунинг устига тармоқдан фойдаланувчилар автоном компютелардан фойдаланувчиларга қараганда боғланмаганлиги энди унчалик эмас, чунки улар маълум бир қоидаларга риоя қилиши керак, ўрнатилган тартибларга бўйсиниши керак, яна бу талабларга уларни ўргатиш керак.

Нихоят, тармоқ ахборотларни хавфсизлиги Тўғрисида масалани кўндаланг қўяди, киришга санксия берилмаганлардан ҳимоялайди, чунки таромқни ҳар қайси компютердан умумий тармоқдаги дисклардан ёзиб олиши мумкин. Бир компютерни

ҳимоялаш, бутун тармоқга қараганда ҳар қандай ҳолатда ҳам бир нечта алоҳида компютерларни ҳимоялаш жуда осон. Шунинг учун тармоқни ўрнатиш мақсадга мувофиқ бўлади фақат шундаки, Агар усиз ишлаб бўлмайдиган ҳолат бўлса, иш унумдорсиз бўлса, Агар компютерлараро алоқалар йўқлиги ишни тўхтатиб қўйиши ва иш ривожланмаса.

Тармоқни лойиҳалашда биринчи галда бор шароитни ва тармоқ ечиши керак бўлган масалаларни таҳлили туриши керак. Тармоқ ўлчамлари (тахминий бўлса ҳам) ва унинг таркибини аниқлаш зарур. Бунда тармоқ ўлчамлари деганда тармоқга бирлашадиган компютелар сони ҳам, ва улар орасидаги масофа ҳам тушунилади. Ўзига аниқ тасувиур қилиш керак, тармоқга уланишга қанча компютелар (минимум ва максимум) керак бўлади. Ҳар қандай ҳолатда ҳам Тармоқдаги компютерлар сонини кейинчалик кўпайтириш учун имконият қолдириш керак, жуда бўлмаганда 20-50%га. Шунини таъкидлаш керакки, корхонанинг ҳамма компютерларини бутунлай тармоқга улаш ҳеч мажбурий эмас. Балким, улардан баъзи бирларини автономли қилиб қолдиришда маъно бордир, масалан, ахборотларни хавфсизлигини ўйлаб уларнинг дискларда. Тармоқга уланган Компютерлар сони унинг унумдорлигига ҳам ва унга хизмат кўрсатишни қийинлашига ҳам кучли таъсир қилади. Шунингдек, у талаб қилинадиган дастурий воситаларни нархини белгилайди. Шунинг учун бунда хатога йўл қўйиш жиддий оқибатларга олиб келади.

Компютерлар сонига қараганда, Тармоқнинг алоқа линияларини талаб қилинадиган узунлиги тармоқнинг лойиҳалашда роли унча кам эмас, балки рол ўйнайди. Масалан, агар масофалар жуда катта бўлса. Жуда қиммат ёки ноёб жихозлар керак бўлиши мумкин. Бунинг устига масофа ошган сари ташқи электромагнит ҳалақит қилувчилардан алоқа линияларни ҳимоялаш зарурлиги кескин ошиб кетади. Тармоқда Ахборотни узатиш тезлиги ҳам (Этҳернет ва Фаст Эрҳернет орасида танлаш) масофага боғлиқ. Масофани танлашда кўзда тутилмаган шароитларни ҳисобга олиш учун унча катта бўлмаган захирани (лоақал%) ташлаб кетиш мақсадга мувофиқдир. Шунини таъкидлаш керакки. Узунлиги бўйича чекланишни енгиб ўтиш баъзан тармоқнинг тузилишини танлаш йўли билан, алоҳида қисмларга уни бўлиш мумкин.

Тармоқ тузилиши деганда тармоқни қисмларга бўлиш усули (сегментларга), шунингдек, бу сегментларни ўзаро боғланиши тушунилади. Корхона тармоғи ишчи компютерлар гуруҳини, бўлимлар тармоқларини, таянчли тармоқларни, бошқа тармоқлар билан алоқа воситаларини ўз ичига қамраб олади. Тармоқнинг қисмларини бирлаштириш учун репитерлар, репитерли концентраторлар, коммутаторлар, кўприклар ва маршрутизаторлардан фойдаланиши мумкин. Шу билан бирга кўп ҳолатларда бу бирлаштирилган жихозларнинг нархи компютерлар, тармоқли адаптерлар ва кабеллар компютерлар нархидан ошиб кетиши ҳам мумкин. Шунинг учун тармоқнинг тузилишини танлаш жуда муҳимдир.

Идеал ҳолатда тармоқ тузилиши биноан ёки корхонани бинолар тузилиш комплексига тўғри келиши керак.

Бир масала билан шуғулланадиган ходимлар гуруҳининг иш жойлари, (масалан, бухгалтерия, сотув бўлими муҳандислар гуруҳи) бир хонада жойланиши керак, ёки яқин жойлашган хоналарда. Бун бу ходимларнинг ҳамма компьютерларини бир сегментга, бир ишчи гуруҳига бирлаштира бўлади ва уларнинг хоналари ёнига бир Сервер ўрнатилади шунингдек уларнинг компьютерларини боғлайдиган концентратор ёки комутатор ўрнатилади. Ҳудди шунга ўхшаб яқин масалалар комплекси билан Шуғулланадиган бўлим ходимларнинг иш жойларини бинонинг Бир қаватида жойлаштириш яхшироқ, бу эса бир сегментга Уларни бирлаштиришини ва бу сегментини кейинчалик бошқаришни анча осонлаштиради. Шу бўлим ишлайдиган этажда коммутаторларни, маршрутизаторларни ва серверларни жойлаштириш қулай.

Юқорида гап тармоқ ўлчамлари тўғрисида юритилган, энди шунга ўхша тузилишни танлашда тармоқни кейинчалик ривожланиши учун имкониятлар қолдириш мақсадга мувофиқдир. Масалан, комутатор ёки маршрузаторлар учун портлар сонини ходирда керак бўладиганга нисбатан, бир нечта кўпроқ (жуда бўлмаганда 10-20%га) сотиб олиш яхшироқ.

Кундуз юруғлиги лампали ёриткичлар қаторлари ёнида кабелларни ўтказиш узатиш хатоларнинг сони кескин ошади (масалани шундпай ҳал этиш кўплар қулай деб ўйлашади, чунки кабел ҳеч кимга ҳалақит бермайди).

Тармоқ кабелларини жойлаштириш учун махсус осилган кабел каробкаларни, деворли кабел юрувчиларни ёки фалшполларни ишлатиш яхшироқ. Бундай ҳолатда механик таъсирлардан кабеллар ишончли ҳимояланган. Масалан энг қиммат ҳал этилиши – бу фалшпол, бу металл панеллар бўлиб, подставкаларда ўрнатилган ва ҳамма хоналарни қоплаган. Аммо фалшпол осон ва хавсиз катта миқдордаги симларни ўтказишга имкон яратади, бу эса илмий лабораторияларда айниқса қимматли, чунки локал тармоқларнинг кабелларидан ташқари Кўп бошқа симлар мавжуд.

Хоналар ёки кавватлар ўртасида кабелни жойлаштириш учун деворларда ёки тўсикларда одатда дарчалар очилади. Хоналар эшиклари ва каридорлар деворлар орқали кабелларни жойлаштиришга қараганда бу кабелларни умумий узунлигини сезиларли қисқартиришга имкон яратади. Аммо бир нарсани ҳисобга олиш керак, масалани бунда ҳал этиш кабел тизимида (кабелларни алмаштириш, қўшимча кабеллар ўтказиш, тармоқ компьютерларини жойини ўзгартириш ва ҳ.к) ҳар қандай кейинги ўзгаршларни мураккаблаштиради.

Кабеллар ҳеч қачон ўз оғрилигини ушлаб туриши керак эмас, чунки вақт ўтган сари улар узилиши мумкин. Уларни пўлат симларга (тросларга) осилтириб

қўйиш керак, очик ҳавода эксплуатация қилиш учун махсус мўлжалланган, атмосфера таъсирларига чидамли қобуқли кабеллар ерак бўлади. Бир бировидан узоқроқда жойлашган юинологларнинг имкони борица бирлаштириш учун ер ости коллекторлари ишлатилиши Керак. Лекин бунда намлик таъсиридан кабелларни ҳимоялаш чоралари кўрилиши керак.

Кабелларни бурилиши радиуслари жуда кичик бўлмаслиги керак (айнан бу коаксиал ва оптолоали кабеллар учун муҳим), чунки бу изоляцияни бузилишига ва марказий жилани узилишига олиб келади. Шу сабабли маҳкамлайдиган элементлар кабелни қаттиқ қисиб ташламаслиги керак. Маълумки, юқоридаги қоидаларни бузушлар тармоқ ишга тушгандан кейин алоқани тўлиқ тугалланишиги олиб келган.

Барча кабеллар учларини бирлаштириш учун махсус тақсимловчи ўтилар (шкафлар) кўп ишлатилади, уларга кириш чекланган бўлиши керак. Албатта, уларнинг қўлланилиши ўзини оқлаш мумкин шундаки, агар кабеллар жуда кўп (бир неча ўнлар)) бўлса, тақсимловчи қутиларни концентраторлар, коммутаторлар ёки маршрутизаторлар ёнида ёнида жойлаштириш мақсадга мувофиқдир.

Агар ишчи стансияларга кампютерларни танлаш имконияти бўлса, Бунда дисксиз ишчи стансияларни қўллашни мақсадга мувофиқлигини тахлил қилишга арзийди (тармоқ орқали операцион тизимни юклаш билан). Бу тезда бутун тармоқ нархини пасайтиради ёки ўша харажатларга анча сифатли кампютерларни сотиб олишга имкон яратади: тез процессорлиларни, яхши мониторлиларни ва катта оператив хотиралиларни. Тўғри, бугунги кунда дисксиз кампютерларга орқа қимлиш масалани энг яхши ҳал этиш ҳисобланмайди. Ахир бу ҳолатда, барчи ахборотни кампютер тармоқ орқали олади ва тармоқга узатади бу эса тармоқни хаддан ташқари юкланишига олиб келади.

Дисксиз ишчи стансияларга йўл қўйилиши мумкин фақат жуда кичик тармоқларда (10-20 кампютерлардан ошмаганда). Идеал ҳолатда барча ахборавий оқимларнинг (80% кам бўлмаган) кўп қисми кампютер ичида қолиши керак, тармоқ ресурсларга эса ҳақиқатдан ҳам фақат зарурият туғилганда мурожат қилиш керак бўлади, яъни юқорида эслатилган “қоида 80/20” бу ҳолатда ҳам ишлайди.

Юмшоқ дискларни ишлатишдан воз кечганда тармоқнинг ҳар бир кампютерида вирусларга ҳам ва маълумотларга киришни рухсат этилмаганлигига ҳам тармоқнинг мустаҳкамлигини сезиларли кўтариш мумкин. Юмшоқ диск кировчиси фақат сегментнинг бир ишчи стансиясида ёки ҳамма тармоқда ҳам бўлиши мумкин. Аммо бу ишчи стансия тармоқ администратори

томонидан назорат қилиши керак. У концентраторлар, коммутаторлар, маршрутизаторлар билан бир хонада жойланиши мумкин.

Ҳар қандай тармоқ учун электр манбаи тизимидаги узулишлар жуда қийин аҳволга олиб келади. Ток манбаи ўчиб қолишларга энг мустаҳкам портатив компьютерлар (ноутбоклар). Ичига ўрнаштирилган аккумулятор ва паст энергия талаб қилиниши ташқи ток манбасиз уларни нормал ишлашини бир-икки соатга ва ундан ҳам кўпга таъминлайди. Агар бу компьютерларни мониторлари юқори сифатли кўрсатиши ва паст даражада нур чиқаришини яна ҳисобга олсак. Ноутбокларни ишчи стансиялар сифатида ишлатиш имкониятини жиддий кўриб чиқишга арзийди, ва мумкин бўлса, унча кучли бўлмаган сервер сифатида, яна кўп ноутбоклар сифати унча ёмон бўлмаган ичига киритилган тармоқли адаптерлари мавжуд. Айниқса ноутбокларни кўп серверли бир поғонали тармоқларда қўлланиши қулай. Узлуксиз ток бериш манбаини ишлатиш Бундай ҳолатда жуда қимматга тушади.

Юқорида санаб ўтилган муаммолардан ташқари, тармоқ лойқаловчисига тармоқли адаптерлар, репитерлар ва маршрутизаторлар билан болиқ бўлган муаммоларни ҳам ҳал этишга тўғри келади, лекин бу тўғрисида олдинги бобларда етарлича айтилган. Фақат шуни таъкидлаш керакки тармоққ унумдорлиги ва иончилиги унинг энг паст сифатли компоненти билан аниқланади. Шунинг учун, концентраторларни ёки коммутаторларни сотиб олганда, тармоқли адаптерларга кўлни аяш (иқтисод қилиш) керак эмас. Бунда бўлим тармоқларини концентраторлар билан бирлаштирилса бўлади, ўзаро эса коммутаторлар билан бирлаштирилади. Коллизия ҳудудлари, Бундай ҳолатдар ҳар бир бўлимнинг тармоқдаги ҳамма сегментларни ўз ичига қамраб олиши мумкин: корхона коммутаторлари ва бўлим концентраторини бирлаштирадиган сегмент. Бундай кроллизия ҳудудлари ҳаммаси бўлиб учта бўлади. Олдинги бобда ёзилганидек, булар учун тармоқни ишга лойиқлиги ҳисобини олиб бориш керак бўлади. Ягона кенг тарқатадиган ҳудуд, бундай ҳолатда, корхонанинг ҳамма тармоғини ўз ичига қамраб олади.

Агар корхонада компьютерлар кўп бўлмаса (50та гача), бўлиши мумкин, фақат маршрутизаторлардан воз кечмасдан, балким коммутаторлардан ҳам, фақат репитерли консен-траторларни қолдириш маънога эга бўлади. Бундан ташқари, тармоқни бундай кичиклигида ва алмашув интенсивлиги паст бўлганида ингичка коаксиал кабелда (ИОБАСЭ2 сегментлари) Этҳернет тармоғи умуман концентраторларсиз ёки 1-2 оддий репитерлар билан тўғри келиши мумкин. Тўғри юқоридаги гапларга кўра, ҳар бир сегментнинг ҳамма компьютерларини сегмент ИОБАСЭ 2ни кабелли узунлиги чекланган сабабли бир кватта жойлаштиришга тўғри келади.

Албатта бундай идиллик сурат ҳар доим кузатилмайди. Керак бўлган вақтда тармоқга янги сегментларни ёки бир нечта сегментларнинг улашга осонлик туғдиради. Ахир ҳар қандай корхона ҳар доим ўсишга интилади, ва бу ўсиш корхона тармоғини янгидан лойиҳалаш зарурлигига олиб келиши керак эмас.

Катта бўлмаган корхона учун оддий мисолда кўриб чиқ.қлайлик, Корхона учта кавватда жойлашга ва уч бўлимни ўз ичига қамраб олган, уларнинг ҳар бирида уч гуру.

Бу ҳолатда, тармоқни шундай қуриш керак:


Ишчи гуруҳлар 1-3 хоналарни эгаллайди, уларнинг компьютерлари репитерли концентраторлар билан ўзаро боғланган. Битта хонага битта, битта гуруҳга ёки битта ҳамма қаватга маршрутизатор ишлатилиши мумкин. Концентратор учун хоналардан бирини (катта бўлмаган) ажратган яхшироқ.

Бўлимлар алоҳида қаватни эгаллайди. Ҳар бир бўлимнинг уч иши гуруҳ тармоқлари коммутатор билан бирлаштирилади, бошқа бўлимлар тармоқлари билан алоқа учун эса маршрутизатордан фойдаланилади.

Коммутаторни концентраторларни бири билан алоҳида хонада жойлаштириш яхшироқ (41-расм, бу ерда С-ишчи гуруҳлар серверлари, РК-репитерли концентраторлар, КОМ-коммутаторлар) ҳақиқатда, ҳамма нарсга одатда анча мураккаб бўлади. Масалан, бўлимлар тузилиши хоналар ва кавватлар тузилишига умуман тўғри келмаслиги мумкин. Корхона бир бинода иккита бир бировидан узоқлашган хоналарни, ёки уч-тўрт бир-биридан узоқлашган биноларни эгаллаши мумкин. Бунда оптитолали сегментларни (барким, имконияти борича максимал кабел узунлигини таъминлайдиган тўлиқ дуплекслипларни) қўллаш мумкин. Тармоқ тузилиши эга бунда жуда мураккаб кўп коллизия ҳудудлари билан ва Кенг тарқатиладиган ҳудудлари билан бўлиши мумкин.

Жиҳозларни ва тармоқи дастуравий таъминотни танлаш.

Тармоқ жиҳозларини танлашда кўп омилларни ҳисобга олиш керак, шу жумладан:



41-расм.

- Жихозларни стандартизация даражаси ва унинг энг кўп тарқалган дастуравий воситалари билан тўғри келиши;
- инфонмация узатиш тезлиги ва унинг келажакда кўпайтириш имконияти;
- тармоқнинг мумкин бўлган технологиялари ва уларнинг комбинациялари (шина, пассив юлдуз, пассив дарахт);
- тармоқдаги алмашувни бошқариш усули (ССМА/СД, тўлиқ дуплек ёки маркерли усул);
- рухсат этилган Тармоқдаги кабел турлари, унинг максимал узунлиги, ҳалақит қилувчилардан ҳимояланганлиги;
- нархи ва алоҳида аппаратли воситаларнинг техник тавсифлари (тармоқли адаптерлар, трансиверлар, репитерлар, концентраторлар, коммутаторлар).

Кўпинча буларни инкор қилишади, бундай қилиш бекор: дастуравий таъминотни аламаштириш осон, лекин аппаратурали алмаштириш, айниқса кабелни жойлаштириши, жуда қимматга тушади, гоҳида қилиб ҳам бўлмайди. Бундай ҳолатда, кўрилатган воқеа учун Эрҳернет тармоғини қўллашни таҳлил қилиб кўриш керак, чунки бу тармоқ жуда машхур, қиммат эмас ва ривожланишга йўл қўяди (Фаст Эрҳернет Гигабит Эрҳернет).

Кабелни танлашда, биринчи навбатда керак бўлган узунлигини ҳисобга олиш керак, шунингдек ташқи ҳалақит қилувчилардан ҳимояланганлигини ва ўзи тўлқин чиқариш даражасини. Тармоқнинг катта узунлигида ва узатадиган маълумотларни махфийлигини таъминоти зарурлигида ёки хонада ҳалақит қилувчилар даражаси катта бўлганида оптолока кабелни алмаштириб бўлмайди. Таъкидлайлик қулай шароитлар бўлганда ҳам электр кабелларни қўллашни ўрнига оптолока кабелларни ишлатиш бузилган ахборотли пакетлар

қисмини пасайтириш ҳисобига тармоқнинг унумдорлигини сезиларли кўтаришга имкон (10-50%) яратади.

Ҳалақит қлувчиларнинг катта даражаси корхона хонасида катта қувватли электр жиҳозларнинг борлигидан келиб чиқади (Масалан, металлга ишлов берадиган дастгоҳлар, физик қурилмалар). Шунингдек у яқинида жойлашган (00-200 м. гача). Юқори волтли электр узатиш линиялари ва кучли радиоузатувчилар (радиостансиялар, уяли телефонларнинг ретрансляцион антенналари). Баъзан, ҳалақит қилувчиларнинг юқори даражаси тармоқ кабелининг нотўғри жойланишига ҳам боғлиқ. Масалан, 220 волтли кучли симлар узунлигида жойлаштириш ёки шунга қарамасдан, кўп тармоқли Дастурий воситалар бунга қарши махсус чоралар ишлатишади, аппаратуранинг бошқа ишламасликларга ҳам (Масалан дисклардан нусха кўчириш), Бу жудда жиддий муаммо. Баъзан ток манбаини ўчиб қолиши тармоқни тўлиқ ва узок вақтга ишдан чиқариши мумкин.

Идеал ҳолатда ток манбаини ўчиб қолишидан тармоқнинг ҳамма серверлари химояланган бўлиши керак (ишчи стансиялар ҳам). Агар сервер тармоқда битта бўлса, бунга эришиш жуда осон. Узлуксиз ток манбаи, ток бериш манбаи бузилганда, аккумулятордан уланган компьютерга ток беришга ўтади ва компьютерга махсус сигнал юборади, у эса қисқа вақт ичида бажараётган операцияларни тамомлайди ва дискда маълумотларни сақлайди. Узлуксиз ток билан таъминлайдиган манбани танлаганда энг аввал у таъминлайдиган максимал қувватига эътиборни қаратиш керак ва кучланиши номинал даражасини у томонидан қанча вақтда ушлаб туришини (Бу вақт бир нече минутдан бир неча соатгача бўлиши мумкин). Бу қурилма анча қиммат (бир неча минг долларгача). Шунинг учун битта узлуксиз ток бериш манбаи икки-уч Серверга ишлатиш мақсадга мувофиқдир. Кичик қувватли УПС лар анча арзон туради, қуввати 300-600 Вт бўлганлар – 100 доллардан камроқ, ва ишчи стансиялар учун ишлатилса бўлади. Акси бўлганда ҳам тўғри. Ҳар қандай ҳолатда ҳам жиҳозларнинг барча компонентлари максимал даражада бир бировига тўғри келиши керак.

Афсуски, тармоқни лойиҳалаш жараёнида энг аввал қайси муаммоларни ҳал этиш кераклиги ва қайсиларини энг охиригача қолдириш кераклигини ажратиб олиш мутлақо мумкин эмас. Дастурий воситаларни танлашни қандайдир иккиламчи деб ҳисоблаб, тармоқнинг тузилишига ва ўлчамларига керакли жиҳозларнинг тавсифларига мутлақо таъсир кўрсатмайди деб бўлмайди. Шунинг учун қандай дастурий воситаларни ишлатиш кераклиги ёки қайси синфга улар тегишлигини лойиҳалашнинг бошланишида ҳал этилиши керак.

Тармоқни дастурий таъминотини танлашда қуйидаги омилларни биринчи навбатда ҳисобга олиш керак:

- қайси тармоқни у ушлаб туради: бир поғонали тармоқ, серверга асосланган тармоқ ёки шу икки турини
- фойдаланувчиларни қайси максимал сонига мўлжалланган (яхшиси 20% кам бўлмаган захира билан олиш керак).
- серверлар сонини қанчасини киритиш мумкин ва серверларни қандай тури мумкин;
- ҳар хил операцион тизимлари ва ҳар хил компьютерлари, шунингдек бошқа тармоқли воситалари билан ишлаш қобилиги;
- ҳар хил режимда ишлаганда дастурий воситаларни унумдорлик даражаси қандай;
- ишончли ишлаш даражаси қандай, киришга рухсат этилган режимлари ва маълумотларни ҳимоялаш даражаси қандай;
- ва барким асосийдир – дастурий таъминотининг нархи қанча.

Ҳеч қачон энг такомиллашган маҳсулот кетидан қувиш керак эмас, у машҳур бўлгани учун, чунки одатда у билан ишлаш мураккаброқ, ва нархи ҳам анча қиммат бўлиши мумкинки, сизнинг масалаларингизни ечишда оддий бир поғонали тармоқ тўғри келиши мумкин, чунки у махсус бошқариш ва қиммат серверни сотиб олишни талаб қилмайди.

Ва ниҳоят, яна тармоқни ўрнатишдан олдин тармоқни бошқариш масаласини ҳал этиш керак.


Бир поғонала тармоқ ҳолатида ҳам бунинг учун алоҳида мутахассисни (администраторни) ажратиш яхшироқ, чунки у тармоқ конфигурацияси тўғрисида.

- корхонанинг умумий тармоғи – бу маршрутизатор билан бирлаштирилган бўлимларнинг тармоқларини уч сегментлари. Глобал тармоқга уланиш учун ҳудди шу маршрутизатордан фойдаланилади.
- ишчи гуруҳлар серверлари ишчи гуруҳлар хоналарида жойлаштирилади, бўлимлар серверлари эса бўлимлар жойлашган қаватларида.

Кўрилаётган ҳолатда, тармоқнинг коллизиялар ҳудуди (конфликлар зонаси) ҳар бир ишчи гуруҳлар хоналарида, бўлим коммутаторлари билан ишчи гуруҳ концентратори боғлайдиган яна сегмент, сегментларни ўз ичига қамраб олади. Бундай коллизиялар ҳудуди тўққизта бўлади. Олдинги бобдагига ўхшаб, ҳудди шулар учун тармоқни ишга лойиқлиги тўғрисида ҳисобларни олиб бориши

керак. Кенг тарқатадиган хуудлар ҳар қайси бўлимнинг тармоқдаги ҳамма сегментларни ўхз ичига қамраб олади, яна корхона маршрутизаторлари билан бўлим коммутаторини боғлайдиган сегмент. Бундай кенг тарқатадиган хуудлардан ҳаммаси бўлиб учта бўлади (42-расм, бу ерда С-ишчи гуруҳ серверлари, РК-репитерли концентраторлар, РКП-бўлим концентраторлари).

Агар лойиҳалаштираётган тармоқ бўйича мўлжалланаётган алмашув интенсивлиги унча катта бўлмаса, компьютерлар унча кўп бўлмаса ва бино ўлчамлари тўғри келса, бунда анча мураккаб ва қиммат қурилмалар бўлган – маршрутизаторларсиз ҳам ишни бажариш мумкин.



42-расм.

Ресурсларни тақсимланиши тўғрисида барча маълумотларга эга бўлади ва ҳамма фойдаланувчилар томонидан тармоқдан тўғри фойдаланишлигини назорат қилади. Агар тармоқ катта бўлса, бунда битта тармоқ администратори билан эндики фойдаланиб бўлмайди, катта гуруҳ администраторлари керак бўлади, уларни тизимли администратор бошқариши керак. Тармоқни ўрнатиб, ишга тушгандан кейин бумасалаларни ечишга анча кеч бўлади.

Фақат шулардан кейин, танланган дастурий таъминотни ўрнатишга ўтиш мумкин, албатта агар бундай ўрнатиш керак бўлса. Айтиб ўтиш жоизки, кўп ҳолларда дастурий воситаларни бевосита ўрнатиш нима хуслаштирилган компютер фирмалари ишчилари шуғулланишади. Аммо муаян корхонага нима кераклиги тўғрисидаги қарорни қабул қилишнинг ҳар ҳолда бутармоқ билан кейинчалик қилиш керак.

Тармоқни ўрнатгандан кейин унинг конфигурациясини (ташқиқ ўринишини) ўтказиш керак, яъни тармоқнинг мантиқий жойланишига эътиборни қаратиш керак, унинг муайян шароитда ишлашини созлаш керак. Бу тармоқнинг тизим администратори бурчларига киради, кейинчалик у тармоқ ишлашини назорат қилади ва уни бошқаради:

- фойдаланувчиларни ва ҳар хил вазифали фойдаланувчилар гуруҳини тузиш;
- фойдаланувчиларни кириш ҳуқуқларини аниқлаш;
- янги фойдаланувчиларни ўқитиш ва фойдаланувчиларга керак бўлганда оператив ёрдам ўрсатиш;
- шу тармоқнинг барча серверлар дискли ҳудудини назорат қилиш;
- ҳимоялаш ва маълумотлар нусхасини захиралаш, компьютер вирусларига қарши курашиш;
- дастурий таъминотни ва тармоқдаги аппаратураларни модернизация қилиш;
- максимал унумдорлигига эришиш учун тармоқни созлаш.

Тизим администратори, одатда, ҳамма тармоқ ресурсларга ва тармоқнинг хизмат даструлариги киришга максимум ҳуқуқларга эга бўлади. Тармоқнинг бошқа фойдаланувчилари идеал ҳолатда, тармоқни сезишлари керак эмас: файл-серверларда, янги принтерларда, сканерларда, моделларда, янги дастурларда тармоқга махсус йўналтирилган уларда янги дисклар пайдо бўлиши керак, масалан, электрон почта.

Ташкил қилинаётган фойдаланувчилар гуруҳи бир муаммо ёки яқин муаммолар билан шуғулланаётган корхона ходимларининг (реал) ҳақиқий гуруҳлари билан имконияти борича тўғри келиши керак. Ҳар бир гуруҳга тизим администратори тармоқ ресурсларга ўзининг кириш ҳуқуқларни ўрнатиши мумкин. Ҳар бир фойдаланувчига алоҳида ҳуқуқларни белгиламасдан, қулайроғи маълум бир ҳуқуқли гуруҳ тузиб, сўнг унга керакли фойдаланувчиларни киритиш керак. Бунда фойдаланувчини ҳуқуқларини ўзгариши керак бўлса бошқа гуруҳга ўтказиш билан қифояланса бўлади. Яхши бўларди, Агар ҳар бир гуруҳни бошқарадиган ўзини тармоқ администратори бўлса (албатта, Агар гуруҳлар етарли катта бўлса). Мисол учун ОС Windows NT тармоғи тўрт турдаги гуруҳлар тузишга имкон яратади:

- Локал гуруҳлар, яъни локал компютерида рўйхатдан ўтадиганлар;
- глобал гуруҳлар, яъни доменни (РДС) бош контроллерда рўйхатдан ўтадиганлар;
- махсус гуруҳлар (тизим ичидаги мухтожлар учун ишлатиладиган)

- киритлиган гуруҳлар, улар уч категорияга бўлинади: администраторлар, операторлар ва бошқа фойдаланувчилар.

Ҳар бир фойдаланувчига алоҳида ўзининг кириш ҳуқуқларини ўрнатиш мумкин. Идеал ҳолатда, ҳар бир фойдаланувчи унга ҳақиқатда қанча керак бўлса, шунча кириш ҳуқуқига эга бўлиши керак, кўп ҳам эмас, кам ҳам эмас. Керак бўлганга қараганда Агар ҳуқуқи кам бўлса, администраторни ишлашига Бу ҳалақит беради. Агар керак бўлганидан ҳуқуқи кўп бўлса, Бунда фойдаланувчи эркин суратда ёки эркин бўлмаганда у билан ишламайдиган қимматли ахборот йўқотиб юбориши ёки унинг бузиши мумкин.

Ҳар қайси тармоқли операцион тизим ёки қоплама каталогларга ва файлларга рухсат этилган ўзининг кириш ҳуқуқлари тўплами бор. Бу унинг ихчамлигини, ишончилигини тармоқнинг ривожланиш имкониятини ифодалайди. Масалан, тармоқли ОС NetWare 3.12 16 жадвалда кўрсатилган рухсатларни таъминлайди. Тармоқли ОС Windows NT Сервер 17-жадвалда кўрсатилган ҳуқуқларни таъминлайди. Бошқа тармоқли воситаларга (18-жадвал) қараганда ОС Windows томонидан бериладиган кириш ҳуқуқлар тўплами кам.

Вақт вақти билан сервернинг барча дисклардан нусха олиш тавсия этилади, масалан, магнит лентасига ёки магнитли ёки оптик дискларга. Бу авария ҳолатида унча кўп ахборот йўқотмасдан, тармоқнинг яқиндаги ҳолатини тиклайди. Бунда тизимли администратор ишчи станциянинг дискида фойдаланувчилар ва уларнинг кириш ҳуқуқлари тўғрисида маълумотларни сақлаши керак, чунки тармоқнинг тикланган вақтида буларни ҳамасини янгитдан берилмаслиги учун. Серверларнинг дисклари икки нусхали бўлиши мақсадгу мувофиқ, улардан биттаси онда сонда янгиланади (Масалан, бир ойда бир марттага), иккинчиси эса – тезроқ (масалан, бир ҳафтада бир марта).

16-жадвал

Кириштурури	Белгилаш	Нимарухсат этилган
Ассесс Сонтрол	А	Каталог ёки файлга Кириш ҳуқуқларини ўзгартирилиши.
Филе	Ф	Каталогни кўриб чиқиш
Ссан	С	
Среате	Э	Шу каталогда каталог ва файлларни

Эrase		яратиш
Модифй	M	Шу каталогда
Супервисорй	C	Каталог ва файлларни олиб ташлаш
Write	W	Файлларни маълумотларни ўзгартириш (қайта ёзиш)
		Каталог файллари устидан ҳар қандай операциялар (супервизор ҳуқуқлари) Файлгаёзиш

17-жадвал

Кириштури	Нимарухсат этилган
Рead	Каталогдаги файлларни ўқиш ва ундан нусха олиш
Эхесуте	Каталогдаги дастурларни Бажариш учун ишга тушиш
Write	Каталогда янги файлларни яратиш
Делете	Каталогдаги файлларни олиб ташлаш
Но Ассесс	Ҳар қандай киришни ман этиш

18-жадвал

Кириш тури	Нима рухсат этилган
Фақат ўқиш	Каталогдаги файлларни ўқиш ва улардан нусха кўчириш

Тўлиқ	Ўқиш, каталогга ёзиш ва каталогдан файлларни олиб ташлаш.
Парол бўйича	Парол билан белгиланади (парол орқали «ўқиш учун»- кириш фақат ўқиш учун, Парол орқали «тўлиқ кириш учун» – тўлиқ кириш).

Тизимли администратор томонидан тармоқнинг назорат қилиши учун махсус дастури воситалар мавжуд. Масалан, ОС Windows NT Сервернинг махсус утилиту Перформансе Монитор – дастури бор, у процессорлар фаолиятини, дисклар ишлашини, хотирани ва тармоқни ишлатилишини реал вақтда назорат қилишга имкон яратади. Алоҳида дастурли пакетлар ҳам бор, масалан, Нетворк Монитор ёки Ланалйрез тармоқда ҳақиқий (реал) алмашув кўрсаткичларини таҳлил қилиб, администратор шундай режимларни ўрнатиш мумкинлиги, улар алмашув-ни энг юқори эффективлигини таъминлайди. Тармоқ ривожланишининг тенденциясини кўриб чиқиб, у ўз вақтида дастурий ёки аппаратли воситаларни модернизация қилиши керакли тўғрида қарор қабул қилиши мумкин.

Албатта, ҳар доим ҳисобга олиш керакки, ҳар қандай тармоқнинг унумдорлиги фақат ўрнатилган аппаратураларга ва дастурий маҳсулотларга боғлиқ эмас, балики эгиладиган масалаларнинг характерига ҳам боғлиқ. Бир тармоқнинг ўзи, масалан, маълумотлар базасига кириш масалаларни ажойиб баражриши мумкин, аммо динамик уч ўлчамли тўлиқ рангли кўринишларни узатилиши билан жуда ёмон ишлайди.

Тармоқнинг лойиҳалашда бошида билмоқ керак, унинг ёрдамида қандай характерли ахборавий оқимларга хизмат кўрсатиш мўлжалланмоқда. Лекин, ҳар қандай ҳолатда ҳам барча омишларни ҳисобга олиш мумкин эмас, имкониятлар ва талабларни оптиал тўғри келишлигига фақат яқинлашиш мумкин.

ТСР/ІР протоколлар стекига асосланади. Бу стек АҚШ Мудофаа Вазирлиги ташаббуси бўйича ишлаб чиқилган ва АРПАнет тармоғи қурилишида қўлланилган, бу тармоқдан кейинчалик Интернет тармоғи ташкил қилинди. Стекни ишлаб чиқариш ва такомиллаштиришга АҚШ университетлари, айниқса УНИХ операцион тизими учун ТСР/ІРни амалга оширган Берклидаги университет ўз улкан хиссасини қўшишди. Стекни такомиллаштириш бўйича 30 йилдан ортиқ вақт

давомида ишлар олиб борилмоқда. Бугунги кунда бу қуйидагиларда ишлатиладиган протоколларнинг энг оммавий стекидир:

- Интернет глобал ахборот тармоғида;
- Интранет деб аталувчи корпоротив тармоқни яратиш учун;
- Экстранет деб номланувчи кириши чегараланган ва химоя даражаси кучайтирилган корпоратив тармоқларни яратиш учун;
- операцион тизимларнинг аксарияти ва локал тармоқларда;
- деярли ҳамма глобал тармоқ технологияларда (X.25, ИСДН, Фраме Релей, АТМ). ТСР/ІР стеки ОСИ моделдаги канал поғонаси протоколларнинг аксариятини, масалан, коммутацияланган ва ажратилган алоқа линияларида маълумотларни узатиш учун қўлланадиган СЛИП ва PPP ни қўллаб қувватлайди.

Интернетда стандартлаш. Интернет тармоқ билан боғлиқ протокол ва стандартларнинг жадал ривожланиши меъёрий ҳужжатларнинг катта сонини тизимлаштириш, тартибга солиш ва нашр этишни талаб қилади. Бу билан Интернет архитектураси масалалари бўйича бошқарувчи кенгаш(Интернет Арчитестуре Боард, ИАБ) шуғулланади. 2000 йил бошигача 2700 дан ортиқҳужжатлар(Рекуест фор Сомменц, РФС) нашр этилди. РФС-бу алоҳида ҳужжатлар, улар техник масалаларнинг кенг доирасини, шу жумладан мажбурий стандартлар, стандартлар бўйича таклифлар, ахборот маълумотлар ва тарихий ахамиятга эга эскирган ҳужжатларни камраб олган. Интернетда стандартизациялаш жараёни РФС 2026 ҳужжати билан тартибга солинади.

ИАБ таркибига қуйидагилар киради:

-РФСни ишлаб чиқарувчи ва тармоқни техник қўллаб-қувватлаш билан боғлиқ муайян тор муаммоларни ҳал қилувчи Интернет мухандис техник комиссияси(Интернет Энгинееринг Таск Форсе,ИЭТФ);

-Интернет ривожланишининг истиқболли масалалари билан шуғулланувчи ва стандартлар аксариятини шакллантирувчи Интернет тадқиқот комиссияси(Интернет Ресеарч Таск Форсе,ИРТФ).

ИАБ 1983 йилда жисмоний шахс ва ташкилотлардан ташкил топган Интернет Ҳамжамияти(Интернет Сосиетй, ИСОС) ёрдамида ташкил қилинган